



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi 195 Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna	195
	Modern Teaching Methods in English Language Learning..... 199 Sarvinoz Abdulhakimova	199
	Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi 202 Shahnoza Muhammadiyeva	202
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari 205 Shopulatova Nasiba Umirovna	205
	Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari..... 208 Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid	208
	Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida 211 Temirov Murodjon Anvarovich	211
	The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students..... 215 Toshmamatova Marjona Olimjon kizi	215
	Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik 220 Toshpo'latova Mahina Farxod qizi	220
	Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari 224 Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi	224
	Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations 228 Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi	228
	Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications..... 232 Veronica Khatamova	232
	Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi 236 Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi	236
	Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida 240 Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova	240
	Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish 246 Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi	246
	The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation..... 250 Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.	250
	Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan 254 Saytbekova Svetlana Saylaubaevna	254
	Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 257 Xoldorova Mashxura G'ulomovna	257
	Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari 260 Xudaybergenova Zuxra Isakovna	260
	Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari 263 Yusupov Ma'mur Ma'rufovich	263
	Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина..... 269 Рахимова Шахзода Равшановна	269
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari 273 Imamova Nasiba Xurramovna	273



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

JISMONIY TARBIYA VA SPORT: IQTIDORLI YOSHLARNI TANLASH, SARALASH VA ULARNI MAQSADLI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich

O'zDJTU Jismoniy madaniyat va sport kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport tizimida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy usullari yoritilgan. Sport sohasida yuqori natijalarga erishishda yosh sportchilarni erta aniqlash, ularning jismoniy, texnik-taktik va psixologik imkoniyatlarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada sport musobaqalarini keng tashkil etish, ayniqsa, chekka hududlardagi yoshlarni sportga jalb qilish hamda ularning sport qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni saralashda ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Yosh sportchilarni maqsadli tayyorlash orqali sport zaxirasini shakllantirish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: iqtidorli yoshlar, sport saralashi, jismoniy tarbiya, sport, texnik-taktik mahorat, jismoniy holat, sport musobaqalari, sport tayyorgarligi, yosh sportchilar, seleksiya, pedagogik texnologiyalar, sport zaxirasi, motivatsiya, chet el tajribasi, sport qobiliyati.

Abstract: This article discusses modern methods of identifying, selecting, and purposefully training talented youth in the system of physical education and sports. Achieving high sports performance largely depends on the early identification of young athletes and the assessment of their physical, technical-tactical, and psychological abilities. The study analyzes the organization of sports competitions, the involvement of young people from remote regions in sports activities, and the development of their athletic potential. Furthermore, the effectiveness of applying advanced foreign experience, modern pedagogical technologies, and scientific approaches in the selection and training of talented athletes is examined. The article also highlights opportunities for developing a strong sports reserve and achieving high results in international competitions through the targeted preparation of young athletes.

Key words: talented youth, sports selection, physical education, sport, technical-tactical mastery, physical condition, sports competitions, sports training, young athletes, selection process, pedagogical technologies, sports reserve, motivation, foreign experience, athletic ability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы выявления, отбора, селекции и целенаправленной подготовки талантливой молодежи в системе физического воспитания и спорта. Для достижения высоких спортивных результатов важное значение имеет раннее выявление молодых спортсменов, а также оценка их физических, технико-тактических и психологических возможностей. В статье анализируются вопросы организации спортивных соревнований, привлечения молодежи из отдалённых регионов к спорту и развития их спортивных способностей. Также рассматривается эффективность использования передового зарубежного опыта, современных педагогических технологий и научных подходов в процессе отбора талантливых спортсменов. Освещаются возможности формирования спортивного резерва и достижения высоких результатов на международных соревнованиях посредством целенаправленной подготовки молодых спортсменов.

Ключевые слова: талантливая молодежь, спортивный отбор, физическое воспитание, спорт, технико-тактическое мастерство, физическое состояние, спортивные соревнования, спортивная подготовка, молодые спортсмены, селекция, педагогические технологии, спортивный резерв, мотивация, зарубежный опыт, спортивные способности.

KIRISH

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yosh avlodni sog'lom, jismonan barkamol, ma'nan yetuk va vatanparvar ruhda tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir. Shu bois mamlakatimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish,



yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish, iqtidorli sportchilarni aniqlash va ularni professional darajada tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro sport maydonlarida yurtimiz sharafini munosib himoya qila oladigan sportchilarni tayyorlash jarayonida iqtidorli yoshlarni to'g'ri tanlash va saralash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport sohasida yuqori natijalarga erishish sportchilarning tabiiy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari va psixologik tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularning qobiliyatlarini chuqur o'rganish va individual yondashuv asosida maqsadli tayyorlash sport pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Sport seleksiyasi jarayonida yoshlarning antropometrik ko'rsatkichlari, jismoniy sifatlari, texnik-taktik imkoniyatlari hamda motivatsion holatini ilmiy asosda baholash muhimdir.

Bugungi globallashuv davrida sport sohasida raqobat tobora kuchayib borayotganligi sababli sportchilarni tayyorlashda zamonaviy ilmiy yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ko'plab rivojlangan davlatlarda iqtidorli yoshlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha maxsus tizimlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular sportchilarni bolalik davridan boshlab professional faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi. Shu jihatdan mamlakatimizda ham sport maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va sport klublari faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoshlar orasida sportga qiziqish yuqori bo'lishiga qaramay, ularning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yetarli emasligi kuzatiladi. Shu bois sport musobaqalarini ko'paytirish, hududlarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash orqali sport zaxirasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sport musobaqalari yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning raqobatbardoshligi, iroda kuchi va mahoratini namoyon etishiga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya va sport tizimida iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash hamda ularni maqsadli tayyorlash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, kanadalik olim Tudor Bompa sportchilarni ko'p yillik tayyorlash nazariyasini ishlab chiqib, sport natijalariga erishishda iste'dodni erta aniqlash va uni bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Tim Reilly va A. M. Williams sport seleksiyasi jarayonida yosh sportchilarning jismoniy, texnik-taktik hamda psixologik imkoniyatlarini kompleks baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Shuningdek, Jean Côté o'z tadqiqotlarida yosh sportchilarning rivojlanishida oila, murabbiy va ijtimoiy muhitning o'rnini tahlil qilib, sport iste'dodini shakllantirishda ushbu omillarning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan. Boshqa bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan sportchilarni tanlashda antropometrik ko'rsatkichlar, funksional imkoniyatlar va motivatsion omillarni hisobga olish zarurligi qayd etilgan.

Mahalliy olimlardan K. Mahkamjonov, A. Abdullayev, Yu. Yunusov va boshqa tadqiqotchilar jismoniy tarbiya hamda sport sohasida yoshlarni saralash, sport zaxirasini shakllantirish va sportchilarni tayyorlashning pedagogik hamda metodik asoslarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi, sport mahoratini shakllantirish va sportga yo'naltirish masalalari yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda sport seleksiyasi va iqtidorli yoshlarni tayyorlash masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, chekka hududlarda yashovchi yoshlarni aniqlash, ularning sport qobiliyatlarini baholash hamda zamonaviy seleksiya mexanizmlarini amaliyotga joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda iqtidorli yoshlarni tanlash va saralash jarayonida zamonaviy yondashuvlar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda sport musobaqalari orqali sport zaxirasini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Xususan, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy-uslubiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida rivojlangan davlatlarda iqtidorli yoshlarni tanlash va saralash tizimlari o'rganilib, ularning amaliy tajribalari mamlakatimiz sport tizimi bilan solishtirildi.

Shuningdek, tahliliy va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, sport seleksiyasi, yosh sportchilarni maqsadli tayyorlash hamda sport zaxirasini shakllantirishga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Tadqiqotda kuza-tish va tavsiflash usullari orqali sportchilarni saralash jarayoniga ta'sir etuvchi jismoniy, morfologik, funksional va psixologik omillar o'rganildi.

Bundan tashqari, sport sohasiga oid statistik ma'lumotlar, ilmiy tadqiqot natijalari hamda amaliy tajribalar tahlil qilinib, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni sport turlariga yo'naltirishning samarali mexanizmlari belgi-

landi. Olingan ma'lumotlar asosida umumlashtirish usuli qo'llanilib, sport tizimida iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va maqsadli tayyorlash bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport tizimida iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari, sport seleksiyasining nazariy asoslari hamda yosh sportchilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati keng yoritib beriladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ijobiy ishlar, xususan, sportga va jismoniy tarbiyaga katta e'tibor yurtimizda sportning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Yosh sportchilarni sportga tanlash va ularga yuklama berishda ko'p yillik sport tayyorgarligi bosqichlaridan xabardor bo'lish, bolalarning yosh xususiyatlarini qat'iy hisobga olish, sport turlari bilan shug'ullanish tamoyillariga amal qilish kerak.

Iqtidorli yoshlarni tanlashda eng muhim xususiyatlardan biri bolani sport turiga to'g'ri yo'naltira olishdir. Tanlangan sport turiga bolaning, eng avvalo, jismoniy holati, yoshi, shu bilan bir qatorda, morfologik holatini hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Shu asosida jamoaviy sport o'yinlaridan voleybol hamda basketbol turlari bilan istiqbolli shug'ullanish uchun bolalarni izlash, aniqlash va tanlash jarayonida ularning genetik jihatdan bo'yadorligi juda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy basketbol hamda voleybolda o'yinlar taqdirini ko'p hollarda bo'yador sportchilar hal etayotganligi ortiqcha isbotga muhtoj emas. Bizga ma'lumki, inson tanasining morfologik shakli, qaddi-qomati yoki xatti-harakatlari kabi ko'rsatkichlari ajdodlaridan o'tadigan nasliy omillarga bog'liq bo'lib, hayot davomida turmush tarzi, ma'naviy-madaniy va jismoniy tarbiya ta'sirida rivoj topadi, shakllanib boradi.

Uzoqni ko'ra olish, yoshlarning sport turiga bo'lgan qobiliyatini aniqlash hamda ularning kelajakda yetuk sportchi bo'lib yetishishlari uchun ulardagi imkoniyatlar chegarasini bilish bu ishda juda muhim hisoblanadi. Yevropa davlatlarida ko'proq jamoaviy sport turlari bo'yicha faoliyat yuritadigan bu tizim vakillari futbol sport turidan juda muvaffaqiyatli faoliyat olib boradi.

Barselona, Manchester Yunayted, Real Madrid, Yuventus professional sport klublari skautlari Amerika, Osiyo va Afrika qit'alarida juda yaxshi faoliyat olib borishadi. Ko'plab jahon yulduzlarini kashf etgan skautlar tizimi bizning mamlakatimizda ham joriy etilishi, mamlakatimiz ichkarisida turli qobiliyat egalarini izlab topish, ularni sportga to'g'ri yo'naltirish hamda kerakli yuqori natijalarga erishishda ularga ko'mak berish uchun bu sohani yurtimizda tashkil etish hamda to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Bu sohada ish olib borayotgan mutaxassislar faoliyatini isloh qilish va sport sohasida ularga ko'maklashish yurtimizda kelajakda sportning rivojida muhim o'rin tutadi.

Bu tizimni joriy etish uchun, avvalo, chekka hududlarda zamon talabiga mos keladigan sport inshootlarini qurish, ularni rekonstruksiya qilish, sportning moddiy-texnik bazasini yaxshilashga e'tibor qaratish lozim. Sportda yuqori natijalarga erishish uchun yoshlar bilan zamon talablariga javob beradigan yangi metodlar hamda dasturlar asosida ishlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport tizimida iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va maqsadli tayyorlash sport sohasining kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Yosh sportchilarning tabiiy qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning jismoniy, texnik-taktik va psixologik imkoniyatlarini to'g'ri baholash yuqori sport natijalariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sport seleksiyasi jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy metodlardan foydalanish sport pedagogikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtidorli yoshlarni tayyorlash jarayonida individual yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish sportchilarning mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh sportchilarning jismoniy holatini muntazam nazorat qilish, ularning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish hamda psixologik tayyorgarligiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Bu esa sportchilarning musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlarni sportga keng jalb etish, ular uchun zamonaviy sport inshootlari va mashg'ulot sharoitlarini yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Hududlarda sport musobaqalarini muntazam tashkil etish orqali yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish va iste'dodli sportchilarni aniqlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa mamlakatimiz sport zaxirasini mustahkamlash va xalqaro sport maydonlarida yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida iqtidorli yoshlarni tanlash va tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sport tizimiga joriy etish hamda sport seleksiyasida raqamli texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlardan samarali foydalanish orqali sportchilar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shu tariqa, jismoniy



tarbiya va sport tizimida barkamol, raqobatbardosh va yuqori natijalarga erisha oladigan sportchilarni tarbiyalash uchun mustahkam asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2022.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 320 b.
4. Kerimov F.A. Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2019. – 280 b.
5. Po'latov A.A. Sport seleksiyasi va yosh sportchilarni tayyorlash asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 240 b.
6. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. – Moskva: Sport, 2018. – 543 s.
7. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2020. – 680 s.
8. Bompa T. Theory and Methodology of Training. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2018. – 412 p.
9. Issurin V.B. Block Periodization: Breakthrough in Sport Training. – London: Ultimate Athlete Concepts, 2019. – 240 p.
10. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-uslubiy materiallari. – Toshkent, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2022.
13. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 320 b.
14. Kerimov F.A. Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2019. – 280 b.
15. Po'latov A.A. Sport seleksiyasi va yosh sportchilarni tayyorlash asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 240 b.
16. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. – Moskva: Sport, 2018. – 543 s.
17. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2020. – 680 s.
18. Bompa T. Theory and Methodology of Training. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2018. – 412 p.
19. Issurin V.B. Block Periodization: Breakthrough in Sport Training. – London: Ultimate Athlete Concepts, 2019. – 240 p.
20. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-uslubiy materiallari. – Toshkent, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.